

JADIDCHILIK – MA'RIFAT SARI ELTUVCHI YO'L

Orifjonova Muxlisa Kamol qizi

Fan va Texnologiyalar universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ortiqova Hamida Maxmud qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati va uning xalq ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, jadidlarning ta'lim tizimini isloh qilish, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish hamda milliy ongni yuksaltirishga qaratilgan faoliyati haqida so'z boradi. Hozirgi kunda jadidchilikga berilayotgan e'tiborlar va keng targ'ib qilinayotgan ishlar yuzasida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, ma'rifat, jadidlar, ta'lim islohoti, taraqqiyot, xalq, ijtimoiy-siyosiy harakat, jamiyat, jaholat, Turkiston.

“Jadid” atamasining ma'nosi “yangi” demakdir. Lekin u shunchaki “yangi”, “yangilik tarafdori” degani emas, balki, “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Jadidchilik – davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan hamda aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyalar tizimi. Bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o'ynagan. Turkistondek bir tarixiy o'lkada sharqona hayot tarzini saqlagan holda uni G'arb va Yevropa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni ko'zlagan.¹⁵

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkiston milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi. Turkiston xalqlari hayotida tarixiy burilish davri boshlanib, uzoq yillar davomida mustamlaka siyosati ostida yashagan xalqning ma'naviy uyg'onish istagi kuchaydi. Ana shu jarayonda jadidchilik harakati yuzaga keldi. Jadidlar xalqni johillikdan chiqarish, ilm-fan, madaniyat va taraqqiyot sari yetaklashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Ularning asosiy shiorlari “Millatni saodatga eltuvchi yo'l – ma'rifat yo'li” edi. Jadidlar xalqni jaholat va savodsizlikdan chiqarish, zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish orqali millatni uyg'otish g'oyasini ilgari surdi. Avvalo, “usuli jadid” ya'ni, yangi usuldagi maktablar ochishni boshladilar. Bu maktablarda arab yozuvida o'qitiladigan diniy fanlar

¹⁵ Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi, Toshkent: 11.12.2023.

bilan bir qatorda, dunyoviy fanlar- hisob, geografiya, tarix, tibbiyot, ona tili va adabiyot kabi fanlar ham o‘qitila boshlandi. Keyinchalik yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o‘qib kelib, o‘z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna” jurnalida quyidagicha yozgan: “To‘y va ma’raka oqchasidan bolalarni, talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig‘a yuborilib, diniy, dunyoviy va zamonaviy, odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun”. Ma’lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatgan. U o‘zining “Jamiyati Xayriya” nomli yordam tashkiloti “ilk maktablarni bitirgandan so‘ngra Turkiya, Orinburg va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi”.¹⁶

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka “burjua-liberal harakati” deb ta’rif berilgan. SSR parchalanib ketganidan keyin jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san’atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini o‘rganishda dastlabki natijalarni qo‘lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniyni 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Azjiy, So‘fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo‘jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritigan “Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari” albom kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo‘llanmalarga kiritildi. 1991-yil 16-18-sentabrda Toshkentda “Markaziy Osiyo XX asr boshida islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazilib, unda AQSH, Germaniya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqbolchilik harakatlari to‘g‘risida jahon ilm-fanida to‘plangan so‘nggi xulosalar yuzasidan O‘zbekistonlik hamkasblari bilan o‘zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati olamshumul ahamiyatga ega hodisa ekanligi e’tirof qilindi.

Jadidchilik harakati o‘z davrida xalqni jaholatdan ozod etishga, millatni ilm-ma’rifat va taraqqiyot sari yetaklashga qaratilgan muhim ijtimoiy-siyosiy harakat bo‘lgan. Bizningcha, jadidlarning eng katta fazilati- ular ma’rifatni xalqni ozod etuvchi kuch deb bilganlarida. Ularning maqsadi faqat darslik yaratish emas, balki butun millat tafakkurini o‘zgartirish, yangicha fikrlaydigan avlodni tarbiyalash edi. Agar biz ularning g‘oyalarini chuqur o‘rganib, hayotga tatbiq etsak, jamiyatimizning ma’naviy yuksalishiga ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

¹⁶ Jadidlar merosini o‘rganish, anglash-ildizi baquvvat daraxtiga aylanish imkonidir. biz tv.uz.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik-bu ma’rifat, yangilanish va milliy uyg‘onish yo‘lidir. Ushbu harakat o‘zbek xalqining tafakkuri, madaniyati va ta’lim tizimining rivojlanishida beqiyos o‘rin tutadi. Jadidlarning ilm, taraqqiyot va ozodlik yo‘lidagi kurashi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bois, har bir yosh jadidlar g‘oyalaridan ilhom olib, ma’rifatli, vatanparvar va faol inson bo‘lishga intilishi lozim. Chunki jadidchilik bu- o‘tgan tarix emas, balki kelajak sari eltuvchi ma’naviy yo‘l, ezgu maqsadlar manbaidir.

ADABIYOTLAR

1. Abdurashidxonov M.A. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar) / M.A. Abdurashidxonov. — Toshkent: Sharq, 2001.
2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, Ma’rifat, Fidoiylik / Begali Qosimov. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
3. Jadidlar merosini o‘rganish, anglash – ildizi baquvvat daraxtga aylanish imkonidir // Biz TV. Uz.
4. Mirziyoyev Sh. Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari: xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi / Sh. Mirziyoyev. — Toshkent, 11.12.2023.